

**IJTIMOY FAOL SHAXSNI TARBIYALASHDA OMMAVIY  
TADBIRLARNI TASHKIL ETISHNING  
MUHIM JIHATLARI.**

*O`zbekiston Finlandiya pedagogika instituti  
Musiqa ta`lim kafedrasi dotsenti G.M.Davronova*

*Musiqa ta`limi yo`nalishi 3-bosqich talabasi  
Raxmatova Fotimaniso Ismoil qizi.*

***Annotatsiya:***

*Ushbu maqolada, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashda sinfdan tashqari musiqa mashg`ulotlarining ommaviy tadbirlar shaklini tashkil etishning muhim jihatlari yoritilgan. Davlat va jamiyatni yuksalishida ijtimoiy faol shaxslarning ahamiyati, shuningdek, ijtimoiy faol shaxsning o`ziga xos xususiyatlari shakllantirishda ommaviy tadbirlarni tashkil etishning dolzarblii aniqlanib, asoslangan.*

***Kalit so`zlar:*** ijtimoiy faol shaxs, musiqa to`garaklari, cholg`u ijrochiligi, ko`nikma, malaka, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, tarbiya va ta`lim.

Yangi O`zbekistonni rivojlantirishda ijtimoiy faol shaxslarning tutgan o`rni juda muhim, chunki bunday insonlar jamiyatda innovatsion g`oyalarni ilgari surish, ijtimoiy barqarorlikni ta`minlash va mamlakatning har tomonlama taraqqiy etishiga xizmat qilishda faol ishtirok etadi. Ular o`z fikri va amaliy harakatlari bilan jamiyatni birlashtiruvchi va rag`batlantiruvchi kuch sifatida maydonga chiqadi.

Ijtimoiy faol shaxs o`zi kim? Jamiyat rivojida qanday ahamiyatga ega. Shaxs tarbiyasida ushbu tushunchaning ahamiyati nimada? Yangi O`zbekistonni yukasalishi va ravnaq topishida bunday shaxsnining o`rni qanday?

"Ijtimoiy faol shaxs" deganda, jamiyatdagi turli masalalar va jarayonlarga faol ishtirok etuvchi, o`z fikri, tashabbuslari va harakatlari orqali ijobiy

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

o‘zgarishlarni amalga oshirishga qodir, to‘g’ri qaror qabul qilivchi, aniq va ezgu maqasadga ega, intiluvchan insonlar nazarda tutiladi. Bunday shaxsning o’ziga xos xususiyatlar:

Faollik- jamiyatdagi muammolarni ko‘rib, ularga befarq bo‘lmaydi va ularni hal qilishga harakat qiladi;

Tashabbuskorlik - turli loyihalar, tadbirlar yoki harakatlarni boshlash va amalga oshirishda faol bo‘ladi;

Kirishimlilik va liderlik- turli guruhlar bilan muloqot qilib, jamoani birlashtirishga qodir shaxs hisoblanadi;

Mas’uliyatlilik - jamiyat a’zosi sifatida o‘z vazifasini to’liq ado etishda mas’uliyatni zimmasiga oladi;

Na’munali shaxs sifatida-boshqalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularni ham ijtimoiy faol bo‘lishga undaydi.

Shaxsni rivojlanishida “faollik” tushunchasining o’rni beqiyos. Inson faolligi “harakat”, “faoliyat”, “xulq” tushunchalari bilan chambarchas bog’liq bo‘lib, shaxs va uning ongli masalasiga borib taqaladi. Bola aynan turli faolliklar yordamida shakllanadi, o’zligini namoyon qiladi. [2.48-b.]

Ta’lim muassasalarida ommaviy tadbirlarni tashkil va unda bolajonlarni va o’quvchi-yoshlarni mavjud qobilyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib birday jalb etish orqali yanada faollashtirishga erishish mumkin.

Ushbu tadqiqot ishida, ayna sinfdan tashqari ommaviy tadbirlarning shaxs tarbiyasida, xususan ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashdagi dolzarbliji asoslangan.

Ijtimoiy faol shaxs tarbiyasida, nima uchun ayna ommaviy tadbirlar va ularni tashkil etish dolzab masala deb qaralgan degan savol tug’uladi.

Ommaviy tadbirlar jamiyatni birlashtiruvchi, insonlarning bilimini, madaniyatini va mas’uliyatini oshiruvchi muhim ijtimoiy vositalardir. Ular jamiyatni ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Shu sababli, bunday tadbirlarni rejorashtirish va tashkil qilish davlat, jamoat tashkilotlari va har bir fuqaroning umumiy vazifasidir. Xususan ta’lim muassasalarida sinfdan tashqari tashkil etiladigan ommaviy tadbirlar,

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

o‘quvchilarning tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi. Ular nafaqat bilim berish jarayonining davomchisi, balki shaxsiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish vositasi hamdir. Ushbu tadbirlar orqali yoshlarning ijtimoiy, ma’naviy, madaniy va psixologik jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanishiga yordam beriladi. Ommaviy tadbirlar:

1. Shaxsning ijtimoiylashuvi, kommunikativlik, moslashuvchanlik ko‘nikmalari rivojlanadi: Sinfdan tashqari ommaviy tadbirlar o‘quvchilarni birgalikda ishlashga, o‘z fikrini bildirishga va boshqalarni tinglashga o‘rgatadi; Jamoa ichida o‘z o‘rnini topish va boshqalarga yordam berish ko‘nikmasini rivojlantiradi; Ommaviy tadbirlar bolalarga jamiyatda o‘z o‘rnini topish va boshqalar bilan muloqot qilish ko‘nikmasini rivojlantirish imkonini beradi.

2. Mas’uliyat va yetakchilik qobiliyatlarini shakllantiradi: Tadbirlarni rejalashtirish va ularni amalga oshirish jarayonida bolalar mas’uliyatni his qilishadi. Shuningdek, yetakchi sifatida o‘zini sinab ko‘rish va boshqa o‘quvchilarni ilhomlantirish imkoniyati yaratiladi.

3. Ijodkorlik va qobiliyat turlarini aniqlash imkonini beradi: Har bir tadbir ijodiy yondashuvni talab qiladi, bu esa bolalarda yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish qobiliyatini kuchaytiradi. Ijodiy ko‘rik-tanlovlar, bayram kunlarini nishonlash, buyuk shaxslar yodiga bag‘shlangan tadbirlar, sind konsertlar, sahna ko‘rinishlari esa o‘quvchilarning iste’dodini va ijodiy qobiliyatini namoyish qilish va rivojlantirishda muhim ahamiyta kasb etadi.

4. Vatanparvarlik va fuqarolik tuyg‘ularini kuchaytirish: Milliy bayramlar, tarixiy voqealarga bag‘ishlangan tadbirlar orqali bolalarda o‘z madaniyati va tarixiga hurmat, vatanparvarlik hissi shakllanadi. O‘quvchilarda fuqarolik mas’uliyatini anglash va ijtimoiy mavzularga befarq bo‘lmaslik kabu tuyg‘ular tarbiyalanadi.

5. Mustaqillik va tashabbuskorlikni rivojlantirish: O‘quvchilar tadbirlarni tashkil qilishda o‘z tashabbuslarini bildirishga o‘rganadi. Tadbirlar tashkil etish va unda ishtirok etish ularga qaror qabul qilish va o‘z harakatlari uchun javob berish ko‘nikmasini shakllantiradi.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

6. Hamkorlikda ishlashni shakllantirish: Guruh bo‘lib ishslash, bayram ertaliklarida qatnashish orqali bolalar jamoa bilan ishslash qoidalarini o‘rganadi va bir-birini qo‘llab-quvvatlashni anglaydi. Jamoaviy muvaffaqiyat o‘quvchi – yoshlarda birdamlik va hamkorlik tuyg‘usini kuchaytiradi. Shuningdek, jamoaviy ishlarda qatnashish orqali ular o‘z tengdoshlari va kattalar bilan hamkorlik qilishga o‘rganadi.

7- *Shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish*: - Tadbirlar qatnashchilarida qiziqish, o‘ziga ishonch, irodani mustahkamlash kabi fazilatlarni shakllantiradi. Ularda o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish va hayotiy maqsadlarini aniqlashga yordam beradi.

8- *Ta’limning amaliy jihatini oshirish*: Sinfdan tashqari tadbirlar orqali o‘quvchilar o‘rgangan nazariy bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi; Tadbir mavzusining badiiy - go‘yaviy mazmuni o‘quvchilar xotirasida uzoq muddatga saqlanib qolish imkonini beradi. (Masalan, taniqli shaxs, shoir, kompoziotor tavalludini nishonlashda hayoti va ijodi bilan tanishish, yoki, bayram tadbirining mazmun-mohiyati).

Sinfdan tashqari ommaviy tadbirlarni tashkil etishda sinf o‘quvchilarini barchasi jalb qilinadi. Bunda o‘qituvchidan talab qilinadigan bir jihat, har bir o‘quvchining qobiliyat va imkoniyalaridan kelib chiqib, ssenariy bo‘yicha vazifa yuklatish lozim. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bu tadbirlarni qiziqarli va maqsadli tashkil etilishi, o‘quvchilarni faolligini oshirishga xizmat qiladi. Bu tadbirlarni shaxsga ta’siri shunda namoyon bo‘ladiki, o‘quvchilar kelajakda qaysi soha va kasb egasi bo‘lishidan qat’iy nazar tashkilotchi, faol, tashabbuskor, ijodkor, estetik madaniyatli, eng asosiysi milliy tarbiyasi shakllangan insonlar bo‘lishida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ommaviy tadbirlar ta’sirida shakllangan o‘quvchilar kelajakda tanlagan kasbini samarali tashkil qilishda muhim o‘rin tutadi. Bunda eng muhimi o‘quvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik qilish, ommaviy tadbirlarda faol ishtirok etishning shaxs rivojlanishida ahamiyatini anglatish lozim. Zero, musiqiy tarbiya, avvalo musiqachi emas, balki, tozza qalb va yaxshi inson tarbiyasi ekanligini unutmaslik lozim.

Prezidentimiz Shavkat Miziyoyev ta’kidlaganidek, “Bizning havas qilsa

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

arziydigan buyuk tariximiz, havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham bo'ladi. Bu yorug‘ keljakni o'zimizning – O'zbekiston yoshlari barpo etishadi” deya ishonch bildirgandilar. Bu ishonchni oqlashga qodir insonlar, bu-ijtimoiy faol shaxslardir.

Kim “Ijtimoiy faol shaxs” bo’la oladi? To’g‘ri tanlov va qaror qilishga qodir, maqsadi aniq, o’z kuchi va tafakkuriga ishongan insonlar. Kimlar bunday xususiyatlarga ega bo'ladi? Qachonki, to‘g‘ri tarbiyaviy yondashuvlar asosida har tomonlama rivojlangan shaxslar. Bunda, o‘qituvchi-pedagoglar va ota-onalarning hamkorligi, qo’llab –quvvatlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, sinfdan tashqari ommaviy tadbirlar shaxs tarbiyasida keng ko'lamli ahamiyatga ega. Ular nafaqat ta’lim jarayonini boyitadi, balki o‘quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishini ta’minlaydi. Bunday tadbirlar orqali yoshlar nafaqat yaxshi bilim oladi, balki jamiyatning faol va yetuk a’zolari sifatida shakllanadi. Shuningdek, sinfdan tashqari ommaviy tadbirlar ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi. Bu tadbirlar o‘quvchilarga nafaqat yangi ko‘nikmalarni o‘rgatadi, balki ularning jamiyatdagi faolligi, mas’uliyati va tashabbuskorligini ham kuchaytiradi. Shu sababli, bunday tadbirlarni rejorashtirish va tashkil qilishda o‘qituvchilar, ota-onalar va mahalliy jamoatchilikning hamkorligi zarur. Ta’lim muassasalari bunday tadbirlarni samarali rejorashtirib, ularni muntazam o‘tkazishga katta e’tibor qaratishi lozim.

### **Foydalilanigan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni //Qonun hujjatlari, ma'lumoytlar milliy bazasi, 24.09.2020 yil. O'RQ-637-son
2. “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagin PF-60-son Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davblatini birga barpo etamiz.-T.:”O'zbekiston”, 2017.-10b.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

4. X.Ibraimov, M.Quronov “Umumiy pedagogika” darslik- T.: “Shahhof” nashriyoti, 2023 yil. 416 bet.
5. G.M. Davronova. Musiqa o‘qitishda innovatsion texnologiyalar [Matn]: darslik O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti – Samarqand: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2024 - 302 bet.
6. G.M. Davronova Musiqa o‘qitish metodikasi. Oliy o‘quv yurtlarining musiqa ta’limi yo‘nalishi uchun o‘quv qo‘llanma. –Samarqand: SamDU nashri, 2021yil, – 192 bet.
7. G.M. Davronova “Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatga tayyorlashda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning muhim jihatlari” // FAN va JAMIYAT Ilmiy-uslubiy jurnal. №2.2023.